

**Davlat ko'chmas mulkini ijaraga berishga**  
**18.04.2023-yilda tuzilgan 260286/123-23 -sonli asosiy ijara shartnomasiga**  
**QO'SHIMCHA SHARTNOMA (KELISHUV)**

**28.02.2024 yil**

**271824160187-son**

**Тошкент вилояти**

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining **Тошкент вилояти** hududiy boshqarmasi nomidan boshqarma boshlig'i **SHERMATOV ILXOM MIRZAAKBAROVICH** (keyingi o'rinlarda "Ijaraga beruvchi" deb yuritiluvchi), ijara obyektining balansda saqlovchisi **MILLIY TEXNOLOGIK TADQIQOTLAR UNIVERSITETI MISIS** nomidan **UMAROV FARXODBEK YARKULOVICH** (keyingi o'rinlarda "Balansda saqlovchi" deb yuritiluvchi) va Nizomi asosida ish yurituvchi **MONEYWISE MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT** nomidan **YO'LDOSHEV ABDULLOH ABDUMAJID O'G'LI**. (keyingi o'rinlarda "Ijaraga oluvchi" deb yuritiluvchi) **18.04.2023** yilda tuzilgan **260286/123-23** -sonli asosiy (birinchi) ijara shartnomasiga (keyingi o'rinlarda "Asosiy shartnoma" deb yuritiluvchi) ushbu uch tomonlama "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)"ni quyidagilar to'g'risida tuzdik:

**I. SHARTNOMANING PREDMETI**

1.1. "Asosiy shartnoma" mazkur "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)" bilan Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablariga muvofiqlashtirildi, jumladan "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)"da **2024**-yil uchun ijara to'lovi summalari nizomning 38-bandida belgilangan tartibida o'zgartirilib, yangidan belgilandi.

1.2. Taraflar amalda qo'llanishda xatoliklarga yo'l qo'yilmaslik maqsadida "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)"ga "Asosiy shartnoma"dagi o'zgartirish kiritilmayotgan bandlarni avvalgi tahrirdagi matnida kiritilishini maqbul deb hisobladi.

1.3. "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)"da nazarda tutilayotgan ijaraga berilgan davlat ko'chmas mulki (keyingi o'rinlarda "Obyekt" deb ataladi) **Saxovat MFY, Amir Temur ko'chasi, 56-uy** dagi manzilda joylashgani, hududi **96.02** kv. metrni tashkil etishi, "Asosiy shartnoma" ilovasidagi tavsifda ko'rsatilgan boshqa ma'lumotlari o'zgarishsiz qoladi.

1.4. "Ijaraga oluvchi" "Obyekt"dan "Asosiy shartnoma"da belgilangan muddat davomida foydalanish, bu muddat tugaganda qonunchilikda belgilangan tartibda shartnoma muddatini uzaytirish huquqini saqlab qoladi.

1.5. Taraflar o'zaro ijara munosabatlarida "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)"ga amal qiladi va unda belgilangan shartlarga bo'ysinishni hamda majburiyatlarni bajarishni o'z zimmasiga oladi.

1.6. "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)"da ko'rsatilmagan shartlar, tartiblar, huquqlar va majburiyatlar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

1.7. "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)" "Ijaraga beruvchi", "Balansda saqlovchi va "Ijaraga oluvchi" tomonidan "online-ijara.uz" axborot tizimida elektron imzolash tartibida rasmiylashtiriladi.

**II. "QO'SHIMCHA SHARTNOMA (KELISHUV)" TUZILISHI,**  
**KUCHGA KIRISHI VA AMAL QILISHI**

2.1. "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)" tuzilishida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 356-moddasi 3-qismi, 382-moddasi 2-qismi va Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to'g'risida"gi nizomning 38-bandiga asoslanildi.

2.2. "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)" "online-ijara.uz" axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

2.3. "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)" asosiy shartnomaning ajralmas – tarkibiy qismi hisoblanadi va uni davlat ro'yxatidan o'tkazish talab etilmaydi (asosiy shartnoma davlat ro'yxatidan o'tkazilmay qolgan hollar bundan mustasno).

2.4. Majburiyatini bajarmagani tufayli "Asosiy shartnoma" davlat ro'yxatidan o'tkazilmay qolgan bo'lsa, "Ijaraga oluvchi" "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)"ni "Asosiy shartnoma" bilan birga 5 ish kuni ichida davlat ro'yxatidan o'tkazadi.

### III. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. "Ijaraga beruvchi" quyidagi huquqlarga ega:

- "Ijaraga oluvchi"ning "Obyekt"dan belgilangan yo'nalishlarda foydalanishi, ijara to'lovini belgilangan miqdor, tartib va muddatlarda to'lashini monitoring qilish;
- "Obyekt"ga hech qanday to'siqsiz kirish, maqsadli foydalanilayotganini, "Obyekt" hududi (hajmi) shartnomaga muvofiqligini o'rganish;
- shartnomaning muddati uzaytirilishida "Ijaraga oluvchi" keyingi muddatga qonunchilikda belgilangan tartibda ijara to'lovi oshirilishidan norozi bo'lgan taqdirda, shartnoma o'z kuchini yo'qotgan deb topish haqida qaror qabul qilish;
- "Ijaraga oluvchi"ga shartnomani muddatidan oldin bekor qilish yoki o'zgartirish haqida taklif kiritish;
- "Ijaraga oluvchi"ning huquqlari ta'minlanishi va manfaatiga zarar yetkazilmasligining qonuniy choralari ko'rib borish;
- "Balansda saqlovchi"ning "Obyekt"ga nisbatan mulkiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish;
- qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

3.2. "Ijaraga beruvchi" quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- ijara to'lovi muddatida amalga oshirilishini nazorat qilib borish;
- "Balansda saqlovchi" bilan birgalikda "Obyekt"dan maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borish;
- ijara to'lovi muddati buzilganda qarzdorlikni hamda hisoblangan penyalarni undirish choralari ko'rish, jumladan sud tartibida majburiy undirish;
- "Ijaraga oluvchi" shartnoma muddati tugagandan keyin, bekor qilinganda yoki haqiqiy emas deb topilganda "Obyekt"ni belgilangan muddatda "Balansda saqlovchi"ga qaytarib topshirmasa, uni "Obyekt"dan majburiy chiqarish choralari ko'rish, zaruriyat tug'ilganida "Balansda saqlovchi" orqali "Obyekt"ga kirishini taqiqlash;
- "Obyekt"ni belgilangan muddatda qaytarib topshirmagani oqibatida ko'rilgan zararni "Ijaraga oluvchi"dan undirish, jumladan sud tartibida majburiy undirish;
- "Ijaraga oluvchi"ning yozma so'roviga asosan shartnomaviy munosabatlarga oid ma'lumotlar va hujjatlarni berish;
- "Ijaraga oluvchi" asosiy shartnomani davlat ro'yxatidan o'tkazish majburiyatini bajarmagan hollarda, unga nisbatan majburlov choralari ko'rish;
- ijara to'lovi muddati buzilgandan keyingi oydan kechikmasdan "Ijaraga oluvchi"ga qonunchilikda belgilangan tartib va muddatda talabnoma kiritish;
- ijara to'lovi muddati buzilgan oylar uchun penya hisoblanib undirilishini ta'minlash;
- ijara to'lovi muddati ketma-ket ikki marotabadan ortiq buzilganda ijara shartnomasini muddatidan avval bekor qilish haqida tezkorlikda sudga da'vo arizasi kiritish;
- "Ijaraga oluvchi"ning shartnoma amal qilish muddatini keyingi davrga uzaytirish haqidagi murojaatini muddatida ko'rib chiqish va qonunchilikda belgilangan asoslar mavjud bo'lganda uni qanoatlantirish;
- "Ijaraga oluvchi"ni shartnoma muddati tugashi arafasida "Obyekt"ni belgilangan muddatda "Balansda saqlovchi"ga qaytarib topshirish va "Obyekt"dan foydalanishni davom ettirmaslik haqida yozma ogohlantirish;
- "Ijaraga oluvchi" "Obyekt"ni tiklash va mukammal ta'mirlash ishlari uchun qilgan sarf-xarajatlari ijara mablag'larining "Balansda saqlovchi"ga taqsimlanadigan qismidan hisoblanishini ko'rib chiqish;
- qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlarni amalga oshirish.

3.3. "Ijaraga oluvchi" quyidagi huquqlarga ega:

- ijara obyektidan auksion savdosi bayonnomasida ko'rsatilgan maqsad va yo'nalishlarda foydalanish;
- "Asosiy shartnoma" va "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)"ni imzolashdan, "Obyekt"dan foydalanishni davom ettirishdan, "Asosiy shartnoma" va "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)"ning amal qilish muddatini uzaytirishdan voz kechish;

- “Asosiy shartnoma” va “Qo‘shimcha shartnoma (kelishuv)”ni muddatidan oldin bekor qilish tashabbusi bilan chiqish;

- “Asosiy shartnoma” va “Qo‘shimcha shartnoma (kelishuv)” muddatini uzaytirish huquqidan belgilangan tartibda foydalanish;

- “Obyekt”ni tiklash yoki mukammal ta’irlash uchun amalga oshirilgan sarf-xarajatlari ijara muddati davomida to‘liq qoplanmagan taqdirda (ijara shartnomasining muddatidan oldin bekor qilingan hollar bundan mustasno), sarf-xarajatlarning qoplanmagan qismini “Balansda saqllovchi”dan boshqa mablag‘lari hisobidan undirib olish;

- qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

3.4. “Ijaraga oluvchi” quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

- “Qo‘shimcha shartnoma (kelishuv)”ni 5 ish kuni ichida elektron raqamli imzosi bilan imzolash;

- ijara to‘lovini “Ijaraga beruvchi”ning g‘azna tranzit hisobraqamiga belgilangan muddat va miqdorlarda 100 foiz oldindan to‘lash tartibida amalga oshirish;

- “Ijaraga beruvchi”ga so‘ragan ma’lumotlar va hujjatlarni berish;

- “Ijaraga beruvchi”ga ijara to‘lovini ta’minlash, qarzdorlikni qoplash haqidagi talabnomani 15 kun ichida ko‘rib chiqish va to‘lov amalga oshirilishi muddatini ma’lum qilib, yozma javob (ma’lumot) berish;

- “Obyekt”dan foydalanishda amaldagi sanitariya-gigiyena, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalariga amal qilish;

- “Obyekt”ni o‘zga shaxslarga subijara (foydalanish)ga bermaslik, garovga qo‘ymaslik yoki boshqacha tarzda uchinchi shaxsga o‘tkazmaslik;

- “Obyekt”ni tiklash yoki mukammal ta’irlash, jumladan qayta jihozlash yoki moslashtirishni faqat “Balansda saqllovchi” va “Ijaraga beruvchi”ning yozma roziligi bilan amalga oshirish, sarf-xarajatlarni qoplash shartlarini “Balansda saqllovchi” bilan kelishish hamda bu haqda “Ijaraga beruvchi”ni xabardor etish;

- “Obyekt”da qo‘shimcha (yoki yangi) mukammal qurilishni amalga oshirmaslik (yengil konstruksiyalar bundan mustasno);

- shartnomani muddatidan oldin bekor qilish istagi haqida kamida 10 kun avval “Ijaraga beruvchi” va “Balansda saqllovchi”ni yozma ravishda ogohlantirish;

- “Obyekt” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumatining hujjatlari, Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish davlat komissiyasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari asosida xususiylashtirilgan taqdirda, shartnomani muddatidan avval bekor qilib, xususiylashtirish bo‘yicha oldi-sotdi shartnomasi rasmiylashtirilgan sanadan boshlab 5 ish kuni ichida “Obyekt”ni “Balansda saqllovchi”ga qaytarib topshirish;

- “Asosiy shartnoma” muddati tugaganda, muddatidan avval bekor qilinganda yoki haqiqiy emas deb topilganda “Obyekt”ni 5 ish kuni ichida “Balansda saqllovchi”ga qaytarib topshirish, bunda “Obyekt”da kamchiliklar aniqlangan taqdirda to‘liq bartaraf etish (qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari) yoki yetkazilgan zararni qoplash;

- ijara to‘lovini belgilangan tartib va miqdorlarda “Balansda saqllovchi”ga “Obyekt” dalolatnoma asosida qaytarib topshirgan kunigacha to‘lash;

- “Obyekt”ga zarar yetkazilganda bu haqida “Ijaraga beruvchi” hamda “Balansda saqllovchi”ga yozma xabar berish va yetkazilgan zararni ixtiyoriy qoplash (tiklash);

- pochta manzili, telefon raqamlari, elektron pochta va boshqa aloqa vositalari hamda rekvizitlari, shuningdek yuridik shaxs bo‘lgan “Ijaraga oluvchi”ning ta’rischilari hamda rahbarlari o‘zgarganda “Ijaraga beruvchi” va “Balansda saqllovchi”ni bu haqda 5 ish kuni ichida yozma xabardor qilish;

- “Obyekt”da o‘zining aybi bilan kommunal avariya holati yuz bersa, uni bartaraf etish, tuzatish va ta’irlash ishlarini o‘z hisobidan amalga oshirish;

- elektron-onlayn auksion savdosi natijalari to‘g‘risidagi bayonnomada ko‘rsatilgan majburiyatlar va qo‘shimcha shartlarni (mavjud bo‘lganda) bajarish;

- “Obyekt”ni o‘z hisobidan beg‘araz joriy ta’irlash hamda soz va but holatda saqlash;

- “Obyekt” bo‘yicha kommunal xizmatlar, elektr energiyasi, suv, gaz iste’moli va issiqlik ta’minoti uchun “Balansda saqllovchi” yoki xizmat ko‘rsatuvchi bilan alohida shartnoma tuzish;

- shartnomaviy majburiyatlarini bajarmagani oqibatida “Balansda saqllovchi”ga yetkazgan zararni ixtiyoriylik asosida qoplash (tiklash);

-qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlarni amalga oshirish.

## **IV. BALANSDA SAQLOVCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

4.1. “Balansda saqlovchi” quyidagi huquqlarga ega:

- “Ijaraga oluvchi”ning xo‘jalik faoliyatiga aralashmagan holda, “Obyekt”ning fizik holatini kuzatib borish;
- “Ijaraga oluvchi” tomonidan “Obyekt”dan foydalanish shartlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- “Ijaraga oluvchi” “Obyekt”ni belgilangan tartibda kelishmasdan o‘zboshimchalik bilan ta‘mirlash, tuzatish, jihozlash, rekonstruksiya qilishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rib borish;
- “Ijaraga oluvchi”dan ijara to‘lovini ijara shartnomasida ko‘rsatilgan miqdor va muddatlarda amalga oshirishni talab qilish;
- “Ijaraga oluvchi”dan ekspluatatsiya xizmatlari uchun har yili belgilangan tartibda shartnoma rasmiylashtirish va unda belgilangan to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishini talab qilish;
- “Ijaraga oluvchi”dan “Obyekt”ga zarar yetkazganda, qonunchilikda va shartnomada belgilangan tartibda vakolatli baholash tashkilotining xulosasiga ko‘ra zarar summasini qoplashni talab qilish;
- “Qo‘shimcha shartnoma (kelishuv)” imzolanmaganida, shartnoma muddatidan avval bekor qilinganida, muddati tugaganda, haqiqiy emas deb topilganda yoki haqiqiy emas deb hisoblanishiga asoslar mavjud bo‘lganida “Ijaraga oluvchi”ni “Obyekt”ga kirishini taqiqlash yoki “Obyekt”dan chiqarish choralarini ko‘rish;
- “Ijaraga oluvchi” bilan yuzaga kelgan nizolar bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli sudlarga ariza (da‘vo arzasi) bilan murojaat qilish;
- qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

4.2. “Balansda saqlovchi” quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

- “Obyekt”ni qaytarish-qabul qilish dalolatnomasini belgilangan tartib va muddatda imzolash;
- ekspluatatsiya va kommunal xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasiga muvofiq “Ijaraga oluvchi” to‘lovlarni ko‘rsatilgan muddatlarda va miqdorda amalga oshirishini nazorat qilish;
- “Ijaraga oluvchi”ning “Obyekt”ni subijaraga bermasligini nazorat qilish, agar bunday holatlar aniqlansa, bu haqda “Ijaraga beruvchi”ni xabardor qilish;
- ijara to‘lovining o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini nazorat qilishda “Ijaraga beruvchi”ga ko‘maklashish;
- ichki qoidalarga asosan “Ijaraga oluvchi”ning “Obyekt”ga to‘siqlarsiz erkin kirib chiqishiga zarur shart- sharoit yaratish;
- “Ijaraga oluvchi”ning aybisiz kommunal tizimda buzilish sodir bo‘lsa, o‘z hisobidan darhol ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish;
- “Ijaraga oluvchi” “Obyekt”dan faqat elektron-onlayn auksion natijalari to‘g‘risidagi bayonnomada belgilangan yo‘nalishlarda foydalanishini nazorat qilish;
- elektron-onlayn auksion natijalari to‘g‘risidagi bayonnomada belgilangan qo‘shimcha shartlar va majburiyatlar “Ijaraga oluvchi” tomonidan bajarilishini nazorat qilish;
- qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlarni ham bajarish.

## **V. IJARA NARXI VA TO‘LOVI TARTIBI**

5.1. “Ijaraga oluvchi” “Qo‘shimcha shartnoma (kelishuv)”da belgilangan muddat va miqdorlarda “Ijaraga beruvchi”ning tranzit hisobraqamiga 100 (yuz) foiz oldindan to‘lash tartibida ijara haqi to‘lab boradi.

Har oy uchun ijara haqi to‘lovi o‘sha oyning 10-kunidan kechiktirmasdan (oldindan to‘lash tartibida) amalga oshiriladi.

5.2. Ijara to‘lovining miqdori joriy yil uchun shu yilga tasdiqlangan ijara to‘lovining eng kam miqdorlariga mutanosib tarzda o‘zgartirilib, “Qo‘shimcha shartnoma (kelishuv)” ilovasidagi tartibda hisoblanadi.

5.3. “Qo‘shimcha shartnoma (kelishuv)” bo‘yicha qarzdorlikni to‘lash uchun “Ijaraga oluvchi” tomonidan yo‘naltirilgan to‘lovlar quyidagi tartibda to‘lanadi:

- “Ijaraga beruvchi”ning chiqimlari (pochta, sud xarajatlari va boshqalar);
- ijara to‘lovi muddati buzilganligi uchun hisoblangan penya va jarima;
- ijara shartnomasi bo‘yicha muddati o‘tgan ijara to‘lovi;
- muddatli ijara to‘lovi.

## **VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI**

6.1. "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)"da belgilangan majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga va shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

6.2. "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)"ni har qanday o'zgartirish va shartnomani bekor qilish faqat "online-ijara.uz" axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

6.3. "Obyekt" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumatining hujjatlari, Davlat mulkini sotishda tender savdolarini o'tkazish bo'yicha davlat komissiyasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari asosida xususiylashtirilib, oldi-sotdi shartnomasi rasmiylashtirilgan kuni "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)" "Asosiy shartnoma" bilan birga o'z kuchini yo'qotgan hisoblanadi.

6.4. "Ijaraga oluvchi"ning joriy yilga belgilangan ijara to'lovi miqdori avvalgi yilgi to'lov summasidan yuqori belgilanishidan norozi bo'lib, "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)"ni "online-ijara.uz" axborot tizimi orqali belgilangan muddatda elektron imzolashdan bosh tortganligi ijara shartnomasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanishiga asos bo'ladi.

6.5. "Ijaraga beruvchi" qonuniy asoslarga ko'ra "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)" "Asosiy shartnoma" bilan birga muddatidan oldin bekor qilish istagi haqida kamida 10 kun avval "Ijaraga oluvchi"ni yozma tartibda ogohlantiradi.

6.6. "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)" "Asosiy shartnoma" bilan birga sud qarori bilan muddatidan aval bekor qilinishi va haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

## **VII. "OBYEKT"NI QAYTARISH TARTIBI**

7.1. Ijara muddati tugaganda, shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda yoki haqiqiy emas deb topilganda "Ijaraga oluvchi" "Obyekt"ni 5 ish kuni ichida "Ijaraga beruvchi" ishtirokida "Balansda saqlovchi"ga yaxlitligi va butligi ta'minlagan holatda dalolatnoma bilan qaytarib topshiradi.

7.2. "Obyekt"ni qaytarish-qabul qilish dalolatnomasida uning tuzilgan joyi va sanasi, ijara shartnomasining rekvizitlari (tuzilgan sanasi, tartib raqami) va ijara mulkining texnik holati ko'rsatiladi.

7.3. "Obyekt" qaytarib topshirilayotganda kamchiliklar aniqlangan taqdirda "Ijaraga oluvchi" "Obyekt"ni shartnoma shartlariga muvofiq holatga keltirgungacha yoki yetkazilgan zarar qoplagungacha "Balansda saqlovchi" uni qabul qilishni rad etishga haqli.

Bunda "Ijaraga oluvchi" dalolatnoma asosida qaytarib topshirgan kuniga qadar ijara haqi to'laydi.

7.4. "Ijaraga oluvchi" elektron-onlayn auksion natijasi to'g'risidagi bayonnomada belgilangan faoliyatlar turini hamda ijara maydonini o'zgartirmoqchi bo'lsa (ijara maydonining 10 foizigacha bo'lgan hajmdagi maydonlarga o'zgartirish bundan mustasno) qonunchilikda belgilangan tartibda amaldagi ijara shartnomasini bekor qilib, "Obyekt"ni auksionga qayta joylashtirish orqali o'z xohishini amalga oshirishi mumkinligi talabiga rioya qiladi.

7.5. "Ijaraga oluvchi" "Obyekt"da tiklash yoki mukammal ta'mirlash ishlarini Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi bergan xulosa hamda "Ijaraga beruvchi" va "Balansda saqlovchi"ning (yuqori turuvchi tashkiloti xabardorligida bergan) yozma roziligi asosida amalga oshiradi. Ular kelishuvga erishganda tiklash yoki mukammal ta'mirlash sarf-xarajatlari ijara to'lovidan tushgan mablag'ning "Balansda saqlovchi"ga taqsimlanadigan qismi hisobidan qoplanishi mumkin.

## **VIII. TARAFLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI**

8.1. "Ijaraga oluvchi" ijara to'lovini belgilangan muddat va miqdorlarda amalga oshirmagani uchun to'lov muddati buzilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda "Ijaraga beruvchi"ga penya to'laydi.

8.2. "Ijaraga oluvchi" shartnoma muddati tugagandan yoki shartnoma bekor qilingandan yoxud shartnoma sud tartibida haqiqiy emas deb topilgandan keyin ham "Ijaraga beruvchi"ning yozma roziligisiz "Obyekt"dan foydalanishni davom ettirsa, foydalangan har bir kuni uchun ijara haqini va shartnomaning 8.1-bandida hisoblangan penyani to'laydi.

8.3. "Balansda saqlovchi" shartnoma muddati tugagandan, shartnoma muddatidan avval bekor qilingandan yoki sud tartibida haqiqiy emas deb topilgandan keyin "Ijaraga oluvchi"ga "Obyekt"dan "Ijaraga beruvchi"ning yozma roziligisiz foydalanishiga imkon bergan taqdirda, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to'g'risida"gi nizomning 58-bandi asosida "Obyekt"dan g'ayriqonuniy foydalanilgan davr uchun ijara to'lovining ikki baravari miqdorida hisoblangan summani "Ijaraga beruvchi"ga to'laydi.

## **IX. FORS-MAJOR**

9.1. Agarda yengib bo'lgan kuchlar bilan bog'liq vaziyatlar, masalan: suv toshqini, yong'in, zilzila, epidemiya, harbiy mojarolar, tomonlar tarafidan mazkur shartnoma shartlarini bajarishga ta'sir ko'rsatuvchi Hukumat yoki mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan farmoyish, buyruq yoki boshqa ma'muriy qarorlar, ma'muriy yoki hukumatning cheklovchi qarorlari va hokazolar yuzaga kelish hollari bevosita yoki bilvosita namoyon bo'lgan taqdirda, "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)" shartlarini bajarish ushbu holat tugashi muddatigacha uzaytiriladi.

9.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon uch kun ichida boshqa tomonlarni fors-major holati boshlanishi va tugashi muddatlarini ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

## **X. QO'SHIMCHA SHARTLAR**

10.1. Taraflar "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)" bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni taraflar xodimlari o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolatlaydi.

10.2. "Ijara oluvchi" "Ijaraga beruvchi"ning xodimi yoki boshqa davlat xizmatchisining ijara munosabatlarida axloq qoidalari, shartnoma shartlari va qonunchilikka zid keladigan xatti-harakatlarga, jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlash holatiga duch kelsa, bu haqda Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining (71) 259-21-14 raqamli ishonch telefoni orqali mas'ul xodimiga xabar qiladi

10.3. "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)" yuzasidan kelib chiqadigan nizolar taraflar kelishuvida hal qilinadi, kelishuvga erishilmasa nizolar "Ijaraga beruvchi" joylashgan hududdagi sud tartibida hal qilinadi.

10.4. Davlat mulkini ijaraga berishning ushbu "Qo'shimcha shartnoma (kelishuv)"da ko'rsatilmagan shartlari asosiy shartnomaga va qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

## **XI. TARAFLARNING YURIDIK MANZILI:**

### ***"IJARAGA BERUVCHI"***

Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish  
markazining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi

Tel: 998931122112

Manzil:

Нурафшон шаҳри, Тошкент йўли қўчаси, 45 уй.

Телефон нўмер йўқ

H/r: 401421860274017041140021002

MFO: 00014 OKED: 68202

INN (JSHSHIR): 300393445

F.I.O.: SHERMATOV ILXOM MIRZAAKBAROVICH

### ***"IJARAGA OLUVCHI"***

MONEYWISE MAS'ULIYATI CHEKLANGAN  
JAMIYAT

Tel: 998339770790

Manzil: Yangiobod MFY, Istiqlol ko'chasi 41

H/r: 20208000305622806001

MFO: 00491 OKED: 56100

INN (JSHSHIR): 310281270

F.I.O.: YO'LDOSHEV ABDULLOH ABDUMAJID  
O'G'LI.

### ***"BALANSDA SAQLOVCHI"***

MILLIY TEXNOLOGIK TADQIQOTLAR UNIVERSITETI  
MISIS

Tel: 998977498422

Tumani: Olmaliq sh.

Manzili: ОЛМАЛИК ШАХАР А.ТЕМУР №56

H/r: 20296000500909729001

MFO: 00459 OKED: 85420

INN (JSHSHIR): 207283968

F.I.O.: UMAROV FARXODBEK YARKULOVICH

Foydalanishga berilgan obyektga ijara to'lovi hisoblanishi.

| №     | Foydalanish maqsadi | Maydon, (kv.m) | Hafta-siga | Hafta kunlari | Soatbay | 1 kv.m tayanch stavkasi | KZ | KQ | KH  | KO  | 1 kv.m ijara stavkasi | Ijara haqining yillik summasi | Shartnoma umumiy summasi 01.01.2024 dan 31.12.2024 gacha |
|-------|---------------------|----------------|------------|---------------|---------|-------------------------|----|----|-----|-----|-----------------------|-------------------------------|--|
| 1     | Умумий овқатланиш   | 96,02          | нормал     | -             | нормал  | 86 240                  | 3  | 1  | 0,8 | 0,5 | 595 056               | 57 137 277,12                 | 47 458 284,82  |
| jami: |                     | 96,02          |            |               |         | 86 240                  | 3  | 1  | 0,8 | 0,5 | 595 056               | 57 137 277,12                 | 47 458 284,82  |

Izoh: **Kz** - hududiy zonalar koeffitsiyenti. **Kq** - binoning qurilishiga ko'ra turi. (alohida turgan bino, qo'shimcha qurilgan bino, binoning yuqori qismi, cherdak, boloxona, yarim yerto'la, yerto'la). **Kx** - tutash hududdan foydalanish koeffitsiyenti. **Ko** - binoning tijorat maqsadida foydalanish qulayligi.

Ijara to'lovi miqdori va muddati

Qo'llanilgan imtiyoz: (Imtiyoz yo'q)

Izoh: -

| №     | Muddat, har oy 10-sanasigacha o'tkaziladi | Boshqarmaning tranzit hisob raqamiga to'lov qiymati, so'm | QQS summasi, so'm | QQS chegirilgan summa, so'm | Shundan, Mahalliy budjetga qiymati, so'm | Shundan, «Balansda saqlovchi»ga qiymati, so'm | Shundan, boshqarmaga qiymati, so'm | PF-16 ga asosan (****) qiymati, so'm |
|-------|---|---|-------------------|-----------------------------|--|---|------------------------------------|--------------------------------------|
|       |   | 100%  | 12%               | 100%                        | 25%                                      | 40%   | 20%                                | 15%                                  |
| 1     | Январ                                     | 4 839 496,149   | 518 517,445       | 4 320 978,705               | 1 080 244,676                            | 1 728 391,482                                 | 864 195,741                        | 648 146,806                          |
| 2     | Феврал                                    | 4 527 270,591   | 485 064,706       | 4 042 205,885               | 1 010 551,471                            | 1 616 882,354                                 | 808 441,177                        | 606 330,883                          |
| 3     | Март                                      | 4 839 496,149   | 518 517,445       | 4 320 978,705               | 1 080 244,676                            | 1 728 391,482                                 | 864 195,741                        | 648 146,806                          |
| 4     | Апрел                                     | 4 683 383,37  | 501 791,075       | 4 181 592,295               | 1 045 398,074                            | 1 672 636,918                                 | 836 318,459                        | 627 238,844                          |
| 5     | Май                                       | 4 839 496,149   | 518 517,445       | 4 320 978,705               | 1 080 244,676                            | 1 728 391,482                                 | 864 195,741                        | 648 146,806                          |
| 6     | Июнь                                      | 4 683 383,37  | 501 791,075       | 4 181 592,295               | 1 045 398,074                            | 1 672 636,918                                 | 836 318,459                        | 627 238,844                          |
| 7     | Июль                                      | 0   | 0                 | 0                           | 0  | 0   | 0                                  | 0                                    |
| 8     | Август                                    | 0   | 0                 | 0                           | 0  | 0   | 0                                  | 0                                    |
| 9     | Сентябрь                                  | 4 683 383,37  | 501 791,075       | 4 181 592,295               | 1 045 398,074                            | 1 672 636,918                                 | 836 318,459                        | 627 238,844                          |
| 10    | Октябрь                                   | 4 839 496,149   | 518 517,445       | 4 320 978,705               | 1 080 244,676                            | 1 728 391,482                                 | 864 195,741                        | 648 146,806                          |
| 11    | Ноябрь                                    | 4 683 383,37  | 501 791,075       | 4 181 592,295               | 1 045 398,074                            | 1 672 636,918                                 | 836 318,459                        | 627 238,844                          |
| 12    | Декабрь                                   | 4 839 496,149   | 518 517,445       | 4 320 978,705               | 1 080 244,676                            | 1 728 391,482                                 | 864 195,741                        | 648 146,806                          |
| jami: |   | 47 458 284,816  | 5 084 816,231     | 42 373 468,59               | 10 593 367,147                           | 16 949 387,436                                | 8 474 693,718                      | 6 356 020,289                        |

lot yoki ID raqami: -



ЭЛЕКТРОН РАҚАМЛИ ИМЗОЛАР:

1. UMAROV FARXODBEK YARKULOVICH (стир: 207283968 сана: 04.03.2024 15:42:44 )